



Сирдарё вилояти Гулистан тиббиёт кластери

директори *Хотамов* К.Х.Хотамов

25 "Октябрь" 2022 йил

ТАНЛАШ БАЁННОМАСИ

КУН ТАРТИБИ: Сирдарё вилояти Гулистан тиббиёт кластери суурита мабаглари хисобидан аутсорсинг хизмати асосида тезкор кир ювиш, санитар зарарсизлантириш, куритиш ва дазмоллаш учун.

1. "SIFATLI AUTSORSING" MCHJ таклифини ўрганиб чикиш

2. "RAVAZ-PLUS BIZNES "МЧЖ" таклифини ўрганиб чикиш

Юкоридаги масала юзасидан директор ўринбосари Б.Тешабоев йигилганларга Гулистан тиббиёт кластеридаги кир ювиш хизмати воситалари бўйича хужжатларни тайёрлаш учун куйидаги тижорат таклифлари бериш бўйича шартнома тузиш тўгрисида гапириб ўтди. 22.04.2021 йилдаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикасининг "Давлат харидалари тўгрисида"ти Қонуннинг самарали ижросини давлат буюртмачилари фаолиятини узлуксизлигини таъминлаш шунингдек давлат харидларини амалга ошириш тўгрисидаги ПҚ-684-сонли Қарори Вазирлар махкамасининг 2020 йил 10 январдаги №16-сонли аутсорсинг хизмати кўрсатиш тўгрисидаги карори ва Сирдарё вилоят согликини саклаш бошкармасининг 2019 йил 7 августдаги №218-сонли Тиббиёт муассасаларининг қўшимча ва ёрдамчи функцияларини (таом тайёрлаш, кир тозалаш, техник хизмат кўрсатиш, ахборот-коммуникация таъминоти ва х.к.)хусусий секторга ўтказиш тўгрисидаги буйруғига асосан Сирдарё вилоят Гулистан тиббиёт кластери 2022 йил вактинча тиббий суурита мабаглари хисобидан тезкор кир ювиш учун ажратилган маблагларни тўгри ва самарали ишлатиш мақсадида 2022 йил 25 октябрдаги лот **22110012163669** билан **26474610** сўмга Тезкор кир ювиш куритиш дазмоллаш учун танловга берган эдик. Танловга ташриф буюрган товар(иши, хизматлар) етказиб берувчилар "SIFATLI AUTSORSING", MCHJ "RAVAZ-PLUS BIZNES "МЧЖ," иштирок этилди. Уларнинг тижорат таклифига асосан аутсорсинг хизмати асосида тезкор кир ювиш, санитар зарарсизлантириш, куритиш ва дазмоллаш бўйича нархи ўрганиб чикилди. Ушбу лот бўйича хеч кандай эътиroz бўлмади.

№	Махсулот номи	Ўл бир	"SIFATLI AUTSORSING" MCHJ			"RAVAZ-PLUS BIZNES "МЧЖ		
			МИК	нархи	суммаси	МИК	нархи	суммаси
1	Тезкор кир ювиш, санитар зарарсизлантириш, куритиш ва дазмоллаш	кг	3111	8510	26 474 610,00	3111	9000	27 999 000,00
	Жами:				26 474 610,00			27 999 000,00

Юкоридаги масала юзасидан кун тартибидаги масала атрофлича мухокама этилиб, сўзга чикканларни фикр ва мулоҳазаларидан келиб чикиб йиғилиш

ҚАРОР ҚИЛАДИ:

1. Шартнома тузилиши лозим бўлган юкорида келтирилган аутсорсинг хизмати асосида тезкор кир ювиш, санитар зарарсизлантириш, куритиш ва дазмоллаш бўйича нархи арzonлиги ва сифатлилигини инобатга олининг "SIFATLI AUTSORSING" MCHJ билан 26 474 610,00 тийинга шартнома тузиш маъқуллансин.

2. Бош хисобчи А.Жамирзаевга шартнома тузиш билан боғлик бўлган хужжатлар расмийлаштирилиб, вилоят газначилик бошкармасидан

Директор ўринбосари:

Б.Тешабоев

Комиссия аъзолари:

А.Жамирзаев

Э.Аликулов

М.Камбаралиева

Б.Абдурахмонов

Ш.Эгамназаров

Котиб:

Шартнома № 32

Гулистан ш.

25 октябр 2022 йил

“Сифатли Аутсорсинг” МЧЖ директори Э.Жуманов жамият устави асосида фаолият юритувчи кейинги ўринда “Хизмат кўрсатувчи” деб юритилади бир томондан ва Гулистан тиббиёт кластери директори К.Х.Хотамов устав асосида фаолият юритувчи кейинги ўринда “Буюртмачи” деб юритилади, иккинчи томондан ушбу шартномани қўйидаги шартлар асосида туздилар.

1. Шартноманинг мазмунни

1.1. “Хизмат кўрсатувчи” шартнома шартлари асосида “Буюртмачи” нинг буюрмасига асосан шартноманинг 1.2. бандида кўрсатилган хизматларни кўрсатади, ўз навбатида “Буюртмачи” “Хизмат кўрсатувчи” томонидан кўрсатилган хизматлар учун шартноманинг 1.2. банди асосида тўловларни амалга оширади.

1.2. Кўрсатиладиган хизмат тури, шартнома суммаси.

Номланиши	Ўлчов бирли ги	Миқд ори	Нархи	Бажарувчини нг суммаси	ҚҚС		Жами сумма ҚҚС билан
					%	Жами	
Тезкор кир ювиш, санитар зарарсизлантириш, куритиш ва дазмоллаш	кг	3 111	7 400	23 021 400	15	3 453 210	26 474 610
Жами							26 474 610

2. Хизмат кўрсатиш шарти, муддати ва ҳисоб китоб

2.1. Шартноманинг 1.2. бандида кўрсатилган хизматларни “Хизмат кўрсатувчи” ўзининг амалдаги меъёрий хужжатлар асосида тайёрланишини таъминлайди.

2.2. “Хизмат кўрсатувчи”ни ҳисоб рақамига “Буюртмачи” томонидан шартноманинг 1.2. бандида кўрсатилган сумманинг 30% ини олдиндан тўлаб беради. Хизматлар бажарилгандан сўнг 10 кун ичida қолган 70% тўлов тўлаб берилади.

3. Шартнома бохоси

3.1 “Хизмат кўрсатувчи” томонидан бажариладиган шартноманинг 1.2. банди бўйича кўрсатиладиган хизмат ҚҚС билан биргаликда 26 474 610 (Йигирма олти миллион тўрт юз етмиш тўрт минг олти юз ўн) сўмни ташкил этади.

3.2. Шартнома сўм миқдори тарафларнинг келишувий билан белгиланади.

4. Тарафларнинг мажбуриятлари

4.1. “Буюртмачи” мажбуриятлари:

a) “Хизмат кўрсатувчи” га шартноманинг 1.2. бандида кўрсатилган шартлар асосида кўрсатилган хизматлар хақини тўлаб беради.

4.2. “Хизмат кўрсатувчи” мажбуриятлари:

б) “Буюртмачи” га шартноманинг 1.2. бандида кўрсатилган шартлар асосида хизматлар кўрсатади.

5. Тарафларнинг жавобгарлиги, низоларни ҳал қилиш тартиби

5.1. “Буюртмачи” “Хизмат кўрсатувчи” томонидан кўрсатилган хизмат сўм миқдорини шартноманинг 2.2. банди муддатларида амалга ошираса, ҳар бир кечикирилган кун учун 0,4% дан пена тўлайди, лекин пенянинг умумий сўм миқдори тўланмаган сўм миқдорини 50% идан ошмаслиги лозим.

5.2. Тарафлар ушбу шартномада кўрсатилмаган шартлар бўйича амалдаги конун доирасида юритадилар.

5.3. Томонлар ўртасидаги барча низолар ўзаро келишув асосида ҳал килинади, агарда тарафлар келиша олмасалар жавобгар жойлашган тегишли суд орқали ҳал килинади.

6. Бошқа шартлар.

6.1. Ушбу шартнома шартларига киритиладиган ҳар қандай ўзгартириш ва қўшимчалар томонларнинг ваколатли шахслари томонидан ёзма равишда тасдиклангандан сўнг ҳакикий хисобланади.

6.2. Ҳеч қайси томон ўз ҳукук ва мажбуриятларини бошқа томоннинг ёзма розилигисиз учинчи томонга ўтказиши мумкин эмас.

6.3. Томонлар ўз реквизитлари ўзгарган тақдирда бошқа томонни ўз вактида хабардор этиши лозим.

6.4. Мазкур шартнома икки нусхада тузилди ва томонларда сакланади.

7. Қўшимча шартлар

7.1. “Хизмат кўрсатувчи” хизматини кўрсатиш бўйича шартнома “Буюртмачи” ва “Хизмат кўрсатувчи” ўртасида календар йил учун Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 10 январдаги 16-сонли қарорининг 2-иловада келтирилган шартлари асосида хизматларни кўрсатиш бўйича намунавий шартномага мувофиқ икки нусхада тузилади. Бунда, “Хизмат кўрсатувчи” томонидан шартнома шартларининг тўлиқ бажарилиши ва “Буюртмачи”нинг харажатлар сметасида ажратилган маблағ “Хизмат кўрсатувчи” ни қониктирган тақдирда, томонларнинг келишувига кўра шартнома муддати навбатдаги календар йил учун узайтирилиши мумкин.

8. Шартноманинг амал қилиш муддати.

8.1. Мазкур шартнома ҳудудий газначилик бўлимида рўйхатдан ўтгандан сўнг ҳакикий деб хисобланади ҳамда 2022 йил 31 декабргача амал киласди.

9. Томонларнинг манзили ва реквизитлари

“Хизмат кўрсатувчи”

“Сифатли Аутсорсинг” МЧЖ

СТИР: 306 710 963

х/р: 20208000905122176001

АТИБ “Ипотека банк” Сирд. ф-ли

МФО: 00364

Директор  Э. Жуманов





“Буюртмачи”

Гулистон тиббиёт кластери

Манзил: Сирдарё вилоят Гулистон шаҳар

Ибн Сино кўчаси 15 уй

ш.х.р: 401321860244017073101054006

Банк номи: Марказий банк XKKM Тошкент шаҳар

МФО 00014, СТИР 308655674

Газначилик номи: Сирдарё вил. Газначилик бошк.си

Газна № 234000300100001010

МФО 00014, СТИР 201122919

Директор 

К.Х.Хотамов



«SIFATLI AUTSORSING» M.CH.J

Сырдарьинский област
город Гулистан

р/с: 20208000905122176001 АТИБ «Ипотека банк» филиал
Сырдарьинской области МФО: 00364 ИНН: 306 710 963

Исх. № 32 от 24.10.2022 г.

Руководителю предприятия

Коммерческое предложение.

Предлагаем воспользоваться полным спектром услуг нашей прачечной. Основной задачей для себя считаем-оказание профессиональных услуг по стирке текстиля, которые должны освободить заказчика от необходимости контролировать данный процесс.

Все ткани после чистки будут безопасны для человека.

№	Наименование услуги	Ед изм, кг	Стоимость поставщика, в сум	НДС, ставка 15%	Стоимость с учетом НДС, сум
1	Срочная качественная стирка, в стоимость стирки входит санитарная обработка, сушка и глажение	1,0	7 400	1 110	8 510

Условия оплаты 30% предоплата, оставшиеся 70% факту выполненных работ, в течении 10 банковских дней.



Э.Жуманов

Илова № 4

« SIFATLI AUTSORSING » M.CH.J нинг кир ювиш бўйича кўрсатадиган хизматнинг
калькуляцияси

Т.р	Номланиши	
1	Хизмат номи	Кир ювиш
2	Хизмат кўрсатадиган ходим лавозими	Кир юувчи
3	Хизмат кўрсатадиган ходимнинг иш хақи (сўм)	860000
4	Хизмат кўрсатишга сарфланадиган вақт (дақиқа)	5
5	Бир дақиқа учун иш хақи суммаси (сўм)	615
6	Бир кг.кир ювиш учун иш хақи (сўм)	3075
7	Иш берувчининг ажратмалари (25%) (сўм)	769
8	Харажатлар (коммунал хизмат, материал сарфи, юувчи воситалар ва бошқалар) (сўм)	1987
9	Режали жамғарма (10-25%) (сўм)	1569
10	Бир кг. кирнинг ювиш нархи (сўм)	7400
11	ҚҚС 15%	1110
12	Ҳаммаси	8510



Директор:

Э.Жуманов

2441947



Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida

GUVOHNOMA

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"SIFATLI AUTSORSING" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'satilgan holdagi to'liq nomi)

"SIFATLI AUTSORSING" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

17.09.2019

761301

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil).

Soliq to'lovchining identifikasiya raqami (STIR):

306710963

Tashkiliy-huquqiy
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Na'muna MFY Xalqlar do'stligi ko'chasi, 5-
uy, 19-xonodon,

Guvohnoma:

Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, DAVLAT XIZMATLARI
MARKAZI

tomonidan
berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT SOLIQ QO'MITASI

ГОСУДАРСТВЕННЫЙ НАЛОГОВЫЙ КОМИТЕТ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I SOLIQ TO'LOVCHISI SIFATIDA RO'YXATDAN
O'TGANLIGI TO'G'RISIDA
GUVOHNOMA

С В И Д Е Т Е Л Ь С Т В О
О РЕГИСТРАЦИИ В КАЧЕСТВЕ НАЛОГОПЛАТЕЛЬЩИКА НАЛОГА НА
ДОБАВЛЕННУЮ СТОИМОСТЬ

QQS RO'YXAT RAQAMI
РЕГИСТРАЦИОННЫЙ НОМЕР НДС 324100184082

Mazkur guvohnoma QQS soliq to'lovchisi sifatida hisobga qo'yilganligi va QQS shaxsiy
ro'yxatga olish raqami berilganligini tasdiqlaydi

Настоящее Свидетельство подтверждает постановку на регистрационный учет в
качестве налогоплательщика НДС и присвоения индивидуального регистрационного
номера НДС

Soliq to'lovchining nomi
Наименование налогоплательщика

"SIFATLI AUTSORSING" MCHJ

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami
Идентификационный номер налогоплательщика

306710963

Shaxs QQS soliq to'lovchisi bo'lgan sana
Дата с которой лицо становится плательщиком
НДС

07.03.2022

Ro'uxatdan o'tish sanasi
Дата регистрации

14.03.2022



Ma'lumotnomada ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'rilibini tekshirish uchun mobil
telefon yordamida QR-kodni skaner qiling.
Отсканируйте QR-код при помощи мобильного устройства для проверки
подлинности информации.

Sirdaryo viloyati Guliston shahar
Davlat xizmatlari markazi
tomonidan 2019-yil 17-sentabrda
761301-son reestr
raqami bilan

«RO'YXATGA OLINGAN»

«SIFATLI AUTSORSING» mas'uliyati
cheklangan jamiyati ishtirokchilarining 2019-
yil 17-sentabr dagi 1-son umumi yig'ilishi
bayonnomasini bilan



**«SIFATLI AUTSORSING»
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATINING
USTAVI**

I. UMUMIY QOIDALAR

1.1. «SIFATLI AUTSORSING» Mas’uliyati cheklangan jamiyatining (bundan buyon matnda «Jamiyat» deb yuritiladi) mazkur Ustavi O’zbekiston Respublikasining «Mas’uliyati cheklangan hamda qo’shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g’risida»gi Qonuni va boshqa qonun hujjatlari, shuningdek Jamiyat Ishtirokchilarining 2019-yil 17-sentabr dagi Ta’sis shartnomasi asosida ishlab chiqilgan.

1.2. Jamiyatning Ishtirokchilari:

— «JUMANOV ERKINJON BAXTIYOR O’G’LI» — 10 000 000.00 UZS, ya’ni 100.00%;

1.3. Jamiyatning to‘liq firma nomi:

Davlat tilida: «SIFATLI AUTSORSING» mas’uliyati cheklangan jamiyati,

Rus tilida: Общество с ограниченной ответственностью «SIFATLI AUTSORSING»;

Jamiyatning qisqartirilgan firma nomi:

Davlat tilida: «SIFATLI AUTSORSING» MChJ

Rus tilida: ООО «SIFATLI AUTSORSING».

1.4. Jamiyatning pochta manzili: O’zbekiston Respublikasi, Sirdaryo viloyati, Guliston shahar Na’muna MFY Xalqlar do’stligi ko’chasi 5/19-uy.

1.5. Jamiyat cheklanmagan muddatga tashkil etiladi.

II. JAMIYATNING YURIDIK MAQOMI

2.1. Jamiyat O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga asosan yuridik shaxs hisoblanadi. Jamiyat belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o’tkazilganidan keyin yuridik shaxs maqomiga ega bo‘ladi.

2.2. Jamiyat o‘z faoliyatini mazkur ustav va O’zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq va ta’sis hujjatlariga asosan amalga oshiradi.

2.3. Jamiyat o‘z majburiyatları bo‘yicha O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq javob beradi. Jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zlari qo’shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo’shmagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatları bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

2.4. Jamiyat o‘zining firma nomi yozilgan shtamp va blankalarga, shuningdek belgilangan tartibda ro‘yxatga olingan o‘z emblemasiga; tovar belgisiga ega bo‘lishga haqli.

2.5. Jamiyat o‘z egaligida mustaqil balansa hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega, o‘z nomidan huquqlar va majburiyatlar olishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

III. JAMIYATNING FILIALLARI VA VAKOLATXONALARI

3.1. Jamiyat O’zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari talablariga muvofiq vakolatxonalar va filiallar va boshqa alohida bo‘linmalar tuzishga haqli.

IV. JAMIYATNI TASHKIL ETISHDAN MAQSAD VA FAOLIYAT TURLARI

4.1. Jamiyatni tashkil etishdan asosiy maqsad ishtirokchilar manfaatlari uchun foyda olish.

Jamiyat faoliyatining predmeti bo‘lib Jismoniy komfortni ta’minalash bo‘yicha faoliyat hisoblanadi. Shu jumladan:

— Obyektlarga kompleks xizmat ko’rsatish;

— Autsorsing xizmati;

— Yangi, sovitilgan va muzlatilgan go‘sht ishlab chiqarish;

- Kolbasa mahsulotlari ishlab chiqarish;
- Sutni qayta ishlash va pishloq ishlab chiqarish;
- Makaron mahsulotlari va shunga o‘xshash unli mahsulotlar ishlab chiqarish;
- Shakar ishlab chiqarish;
- Boshqa ustki kiyimlar ishlab chiqarish;
- Boshqa kiyimlar va aksessuarlar ishlab chiqarish;
- Poyafzal ishlab chiqarish;
- Qog‘oz va kartondan boshqa buyumlar ishlab chiqarish;
- Bo‘yoqlar, laklar va shu kabi bo‘yovchi moddalar, bosmaxona bo‘yoqlari va mastikalar ishlab chiqarish;
- Sovun va yuvish vositalari, tozalash va sayqallash preparatlari ishlab chiqarish;
- Sun‘iy tolalar ishlab chiqarish;
- Yelim ishlab chiqarish;
- Oshxona uchun mebel ishlab chiqarish;
- Kemalar va qayiqlarni ta‘mirlash, texnik xizmat ko‘rsatish;
- Tiklash va chiqindilarni yo‘qotish sohasidagi boshqa xizmatlar;
- Boshqa avtomobilarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash;
- Ixtisoslashmagan do‘konlarda boshqa tovarlar chakana savdosи;
- Quruqlik transporti sohasidagi xizmatlar;
- Suv transporti sohasidagi xizmatlar;
- Bojxona agentlarining xizmatlari;
- Avtomobil transportida yuk tashish;
- Ko‘chish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish;
- Binolarni umumiyligiga ishtirish;
- Yig‘ishtirish bo‘yicha xizmatlarning boshqa turlari;
- Maxsus shifokorlik amaliyoti sohasidagi faoliyat;
- Stomatologiya sohasidagi faoliyat;
- Sog‘liqni saqlash sohasidagi boshqa faoliyat;
- Yashash uchun joy bilan ta‘minlagan holda keksa yoshdagilar va nogironlarni parvarishlash bo‘yicha faoliyat;
- Yashash uchun joy bilan ta‘minlagan holda parvarishlash faoliyatining boshqa turlari;
- Bolalarni kunduzgi parvarishlash;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan, yashash uchun joy bilan ta‘minlamagan holda boshqa ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish;
- Poyafzal va charm buyumlarni ta‘mirlash;
- Mebellar va uy-ro‘zg‘or anjomlarini ta‘mirlash;
- Soatlar va zargarlik buyumlarini ta‘mirlash;
- To‘qimachilik buyumlari va mo‘ynali buyumlarni yuvish va kimyoviy tozalash;
- Sartaroshxonalar va go‘zallik salonlari xizmatlari;
- Dafn marosimlarini tashkil qilish va shu bilan bog‘liq faoliyat;
- Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy xizmatlar;
- Tuzlangan, quritilgan yoki dudlangan go‘sht, parranda go‘shti va ozuqaviy submahsulotlar ishlab chiqarish;
- Kommunikatsiya uskunalarini ta‘mirlash;
- Maishiy elektronika jihozlarini ta‘mirlash;
- Yengil avtomobilarga texnik xizmat ko‘rsatish va ta‘mirlash;

- Boshqa elektr asboblar ishlab chiqarish;
 - Kompyuterlar va periferik uskunalarini ta'mirlash;
 - Non, xamirdan yangi tayyorlangan qandolat mahsulotlari, tort va pirojnoye ishlab chiqarish;
 - Temir yo'l, avtotransport, dengiz yoki havo orqali transportda tashishni tashkil qilish;
 - Yashash uchun joy bilan ta'minlagan holda meditsina xizmati ko'rsatish;
 - Ichimlik yetkazish;
 - Restoranlar va oziq-ovqat mahsulotlari yetkazish bo'yicha xizmatlar;
 - Buyurtma bo'yicha ovqat yetkazib berish;
 - Ovqatlanishni tashkil qilishning boshqa turlari;
 - Boshqa toifalarga kiritilmagan ko'chmas mulkni boshqarish bo'yicha xizmatlar;
 - Soliq solish masalalari bo'yicha maslahatchilar xizmati;
 - O'rmonchilik sohasidagi texnik xizmatlar;
 - Boshqa toifalarga kiritilmagan go'sht mahsulotlari ishlab chiqarish;
 - Suxari va pechenye, xamirdan tayyorlangan uzoq saqlanadigan qandolat mahsulotlari ishlab chiqarish;
 - Aviatsiya uchun mo'ljallanganidan tashqari dvigatellar va turbinalar, avtomobil va mototsikllar dvigatellari ishlab chiqarish;
 - Ofis va magazinlar uchun mebel ishlab chiqarish;
 - Havo kemalari va kosmik kemalarni ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish;
 - Boshqa toifalarga kiritilmagan transport uskunalarining boshqa turlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;
 - Avtomobilarni yuvish, sayqallash va shu kabi faoliyat;
 - Boshqa toifalarga kiritilmagan, motorli transport vositalariga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash turlari;
 - Ixtisoslashmagan ulgurji savdo;
 - Havo transporti sohasidagi xizmatlar;
 - Boshqa toifalarga kiritilmagan, tashish jarayonidagi boshqa kuzatib borish xizmatlari;
 - Binolarni va sanoat obyektlarini yig'ishtirish bo'yicha boshqa faoliyat;
 - Obodonlashtirish bo'yicha faoliyat; landshaftni rejalashtirish;
 - Umumiy shifokorlik amaliyoti sohasidagi faoliyat;
 - Aqliy va jismoniy nuqsonli, ruhiy va narkologik kasalligi bo'lgan shaxslarning yashashi bilan bog'liq faoliyat;
 - Yashash uchun joy bilan ta'minlamagan holda keksa yoshdagilar va nogironlarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish;
 - Maishiy tovarlar, uy va bog' inventarlarini ta'mirlash;
 - Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash;
 - Boshqa huquqiy xizmatlar;
 - Ulgurji va chakana savdo;
 - Yetkazib berish xizmatlari;
- qonun hujjatlari bilan taqiqilanmagan boshqa har qanday faoliyat turlari.

4.2. Amalga oshirilishi uchun maxsus ruxsatnomasi (litsenziya) talab qilinadigan faoliyat tegishli ruxsatnomasi (litsenziya) olingandan keyin amalga oshiriladi.

V. ISHTIROKCHILARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

5.1. Jamiyat ishtirokchilari quyidagilarga haqlidirlar:

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etish;

qonun hujjatlarida va jamiyat ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish hamda uning buxgalteriya daftarlari va boshqa hujjatlari bilan tanishish;

foydan taqsimlashda va uning tegishli qismini olishda ishtirok etish;

jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoxud uning bir qismini qonun hujjatlarida va jamiyatning ustavida nazarda tutilgan tartibda mazkur jamiyatning bir yoki bir necha ishtirokchisiga yoxud uchinchi shaxslarga sotish yoki o'zga tarzda ularning foydasiga voz kechish;

jamiyat boshqa ishtirokchilarining roziligidan qat'i nazar, qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda istalgan vaqtida jamiyat ishtirokchilari tarkibidan chiqish;

jamiyat tugatilgan taqdirda, kreditorlar bilan hisob-kitob qilinganidan keyin qolgan mol-mulkning bir qismini yoki uning qiymatini olish;

jadi ulushlari jamiyat ustav fondining kamida o'n foizini tashkil etadigan jamiyat ishtirokchilari o'z majburiyatlarini qo'pol buzayotgan yoxud o'z harakatlari yoki harakatsizligi bilan jamiyatning faoliyat ko'rsatishiga imkon bermayotgan yoki uni jiddiy tarzda qiyinlashtirayotgan ishtirokchini jamiyatdan sud tartibida chiqarilishini talab qilishga haqlidirlar;

jamiyat ishtirokchilari jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

5.2. Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatları:

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga amal qilishlari;

qonun hujjatlarida va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo'shishlari;

jamiyat faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari shart.

Jamiyat ishtirokchilariga jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlar ham yuklanishi mumkin.

VI. JAMIYATNING MOL-MULKI VA MABLAG'LARI

6.1. Jamiyat mustaqil ravishda o'ziga tegishli mol-mulkdan foydalanadi.

6.2. Jamiyatning mol-mulki:

— ishtirokchilarning ulushlaridan;

— jamiyat faoliyati natijasida olingan foydadan;

— O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan shakllantiriladi.

VII. JAMIYATNING USTAV FONDI

7.1. Jamiyatning tashkil etilishi va faoliyatini amalga oshirishi uchun ishtirokchilar 10 000 000.00 so'm miqdorida ustav fondi shakllantirishadi.

7.2. Ishtirokchilarning ustav fondidagi ulushlari quyidagicha:

— «JUMANOV ERKINJON BAXTIYOR O'G'LII» — 10 000 000.00 UZS, ya'ni 100.00%;

7.3. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin bir yil mobaynida Ishtirokchilarning har biri ustav fondidagi ulushini to'liq kiritadi.

7.4. Pul, qimmatli qog'ozlar, o'zga ashayolar yoki mulkiy huquqlar yoxud pul bahosiga ega bo'lgan boshqa shaxsga o'tkaziladigan o'zga huquqlar jamiyatning ustav fondiga qo'shiladigan hissalar bo'lishi mumkin.

7.5. Jamiyat ishtirokchilarining umumiylig'i ilishi qaroriga asosan ustav fondini ko'paytirishi yoki kamaytirishi mumkin.

7.6. Jamiyatning ustav fondini ko'paytirishga u to'liq to'langanidan keyingina yo'l qo'yiladi. Jamiyat ustav fondining ko'paytirilishi jamiyatning mol-mulki hisobiga va (yoki) jamiyat ishtirokchilarining qo'shimcha hissalarini hisobiga, agar bu jamiyatning ustavi bilan taqiqlangan bo'lmasa, jamiyatga qabul qilinadigan uchinchi shaxslar hissalarini hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini jamiyatning mol-mulki hisobiga ko'paytirish to'g'risidagi qaror bunday qaror qabul qilingan yildan oldingi yil uchun jamiyatning buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari asosidagina qabul qilinishi mumkin.

7.7. Jamiyatning ustav fondini kamaytirish ishtirokchilarga tegishli bo'lgan ulushlarning nominal qiymatini kamaytirish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Jamiyat ustav fondini kamaytirish va uning yangi miqdori to'g'risida qaror qabul qilingan vaqtidan boshlab o'ttiz kun mobaynida jamiyatning unga ma'lum bo'lgan barcha kreditorlarini xabardor qilishi, shuningdek qabul qilingan qaror to'g'risida ommaviy axborot vositalarida ma'lumot e'lon qilishi shart.

7.8. Ustav fondini o'zgartirish to'g'risidagi qaror uchinchi shaxslar uchun ustav va ta'sis shartnomasiga tegishli o'zgartirishlar va qo'shimchalar davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyingina kuchga kiradi.

VIII. ISHTIROKCHILARNING JAMIYAT ISHTIROKCHILARI SAFIDAN CHIQISHI VA UNING OQIBATLARI

8.1. Jamiyatning har qanday ishtirokchisi jamiyat ishtirokchilari safidan chiqish huquqiga ega. Bunday holatda ishtirokchi ustav fondidagi o'z ulushini qolgan ishtirokchilarga yoxud ularning roziligi bo'yicha uchinchi shaxslarga sotish yoki ularning foydasiga voz kechish huquqiga ega.

8.2. Ishtirokchi ishtirokchilar safidan chiqishida unga o'zi tomonidan ustav fondiga kiritilgan ulushning haqiqiy qiymati natura yoki haqiqiy qiymatiga teng bo'lgan pul ko'rinishida qaytariladi.

8.3. Jamiyat ishtirokchisi o'zgartirilganidan keyin jamiyatning ta'sis hujjatlariga zaruriy o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishi lozim.

8.4. Jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar uchinchi shaxslar uchun ular davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan keyin kuchga kiradi.

IX. JAMIYAT ISHTIROKCHISINING JAMIYAT USTAV FONDIDAGI ULUSHINING (ULUSHI BIR QISMINING) JAMIYATNING BOSHQA ISHTIROKCHILARIGA VA UCHINCHI SHAXSLARGA O'TISHI

9.1. Jamiyat ishtirokchilaridan har biri jamiyatning ustav fondidagi o'z ulushini yoki ulushining qismini jamiyatning boshqa ishtirokchilariga va uchinchi shaxslarga sotishga yoki boshqacha shaklda ularning foydasiga voz kechishga haqli.

9.2. Jamiyat ishtirokchisining ulushi to'liq to'langan davrgacha bo'lgan muddatda to'langan qismi bo'yichagina begonalashtirilishi mumkin.

9.3. Jamiyat ustav fondidagi ulushdan (ulushning bir qismidan) boshqa shaxsning foydasiga voz kechish, oddiy yozma shaklda amalga oshirilishi kerak.

X. JAMIYATNING HUJJATLARINI SAQLASH

10.1. Jamiyat quyidagi hujjatlarni saqlashi shart:

- jamiyatning ta'sis hujjatlari, shuningdek jamiyatning ta'sis hujjatlariga kiritilgan hamda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan o'zgartishlar va qo'shimchalar;
- jamiyat muassislari yig'ilishining jamiyatni tashkil etish va jamiyatning ustav fondiga qo'shiladigan pulsiz hissalarning pul bahosini tasdiqlash to'g'risidagi qarorni, shuningdek jamiyatni tashkil etish bilan bog'liq boshqa qarorlarni o'z ichiga olgan bayonnomasi;
- jamiyat davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat;
- jamiyatning o'z balansida turgan mo'l-mulkka bo'lgan huquqini tasdiqlovchi hujjatlar;
- jamiyatning filiallari va vakolatxonalari to'g'risidagi nizomlar;
- jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishlarining, jamiyat kuzatuv kengashi, jamiyatning kollegial ijro etuvchi organi va jamiyatning taftish komissiyasi majlislarining bayonnomalari;
- jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) va auditorlik tashkilotining xulosalari;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hujjatlar.

10.2. Yuqorida aytib o'tilgan hujjatlar ijro etuvchi organ joylashgan joyda saqlanadi.

10.3. Agarda amaldagi qonun hujjatlari bilan boshqacha qoidalar belgilangan bo'limasa, jamiyat mazkur ustavning 10.1-bandida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni doimiy saqlaydi.

10.4. Jamiyat har qanday ishtirokchining talabi bilan unga axborot, shuningdek ta'sis hujjatlarini unga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar bilan taqdij qilishi yoki nusxa berishi shart.

XI. HISOB VA HISOBOT

11.1. Jamiyat o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va o'z mahsuloti va xizmatlariga narxlarni bozor konyukturasidan kelib chiqib belgilaydi.

11.2. Jamiyat mustaqil ravishda buxgalteriya hisobini, statistika va moliyaviy hisobotni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradi.

11.3. Jamiyat mustaqil ravishda jamiyatning tashkiliy tuzilmasini, shtat jadvalini va mehnatga haq to'lashni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hal qiladi.

11.4. Jamiyat faoliyatiga oid hisobotlarni qonunda belgilangan tartibda davlat organlariga taqdim qiladi.

XII. DAROMADNI TAQSIMLASH VA ZIYONLARNI QOPLASH

12.2. Jamiyat ustav fondining 15% miqdorida zaxira fondi shakllanadir. Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash va qonunda nazarda tutilgan hollarda Jamiyatning ustav fondidagi ulushni (ulushning qismini) sotib olish uchun mo'ljallangan.

XIII. JAMIYATNING BOSHQARUV ORGANLARI

13.1. Jamiyatning boshqaruv organlari bo'lib quyidagilar belgilanadi:

- ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi — oliy boshqaruv organi;
- direktor jamiyatning ijro etuvchi organi.

13.2. Jamiyatda kuzatuv kengashi va taftish komissiyasi belgilangan tartibda tashkil etilishi mumkin.

XIV. ISHTIROKCHILARNING UMUMIY YIG‘ILISHI

14.1. Jamiatning oliv boshqaruv organi bo‘lib jamiat ishtirokchilarining umumi yig‘ilishi hisoblanadi.

14.2. Jamiatning har bir ishtirokchisi jamiat ishtirokchilarining umumi yig‘ilishida jamiatning ustav fondidagi o‘z ulushiga mutanosib ovozlar soniga ega bo‘ladi.

14.3. Jamiat ishtirokchilar umumi yig‘ilishining mutlaq vakolatlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

a) jamiat faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini belgilash, shuningdek tijorat tashkilotlarining boshqa birlashmalarida ishtirok etish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

b) jamiat ustav fondining miqdorini o‘zgartirish;

v) ta’sis hujjatlariga o‘zgartishlar va qo‘srimchalar kiritish;

g) jamiatning ijro etuvchi organlarini tuzish va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

d) jamiatning taftish komissiyasini (taftishchisini) saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

ye) agar jamiatning ustavida kuzatuv kengashini tuzish nazarda tutilgan bo‘lsa, uni saylash va uning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

j) yillik hisobotlarni va yillik buxgalteriya balanslarini tasdiqlash;

z) jamiatning sof foydasini jamiat ishtirokchilar o‘rtasida taqsimlash to‘g‘risida qaror qabul qilish;

i) jamiat organlarining faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlarni tasdiqlash (qabul qilish);

k) auditorlik tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qilish, auditorlik tashkilotlari hamda ularning xizmatlariga to‘lanadigan haqning eng ko‘p miqdorini aniqlash;

l) boshqa yuridik shaxslarni, vakolatxonalar va filiallarni tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

m) jamiatni qayta tashkil etish yoki tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

n) tugatuvchini tayinlash va tugatish balanslarini tasdiqlash.

Jamiat ishtirokchilar umumi yig‘ilishining a), b), v), z) va m) kichik bandlarida ko‘rsatilgan masalalar yuzasidan qarorlari jamiatning barcha ishtirokchilar tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi.

Jamiat ishtirokchilar umumi yig‘ilishining qolgan qarorlari, jamiat ishtirokchilar umumi ovozlar sonining ko‘pchilik ovozlar bilan qabul qilinadi.

XV. IJRO ETUVCHI ORGAN

15.1. Jamiatning ijro etuvchi organi bo‘lib jamiatning joriy faoliyatiga rahbarlikni amalga oshiruvchi direktor hisoblanadi.

15.2. Jamiatning direktori ishtirokchilarining umumi yig‘ilishi tomonidan saylanadi.

15.3. Jamiat va jamiatning direktori o‘rtasidagi shartnomasi, jamiat nomidan, direktor tayinlangan jamiat ishtirokchilarining umumi yig‘ilishida raislik qiluvchi yoki jamiat ishtirokchilarining umumi yig‘ilishi tomonidan vakolat berilgan jamiat ishtirokchisi tomonidan imzolanadi.

15.4. Direktor lavozimiga O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Direktor bilan tuzilgan mehnat shartnomasini direktorni saylash to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqilgan jamiat ishtirokchilarining umumi yig‘ilishi raisi imzolaydi.

15.5. Direktor lavozimidan ishtirokchilarining umumi yig‘ilishi qarori bilan lavozimidan ozod qilinishi mumkin.

15.6. Jamiatning direktori:

jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi va bitimlar tuzadi;

jamiat nomidan vakillik qilish huquqi uchun ishonchnomalar beradi;

jamiat xodimlari bilan mehnat shartnomalari tuzadi va ularni bekor qiladi, xodimlarga nisbatan rag'batlantirish choralarini va intizomiy jazolarni qo'llaydi;

jamiatning barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar va farmoyishlar chiqaradi;

qonun hujjatlari va jamiyatning ustavi bilan jamiat ishtirokchilarining umumiyligi yig'ilishi va jamiatning kuzatuv kengashi vakolatlari jumlasiga kiritilmagan boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

15.7. Direktor ishtirokchilar umumiyligi yig'ilishi hisobot beradi va uning oldida jamiyat faoliyatining amalga oshirilishi hamda unga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarning bajarilishi uchun javobgardir.

15.8. Direktor jamiyat mol-mulkini tasarruf etishi va ishtirokchilarning umumiyligi yig'ilishi qarori bo'yicha yirik bitimlar tuzishi mumkin.

XVI. JAMIYAT FAOLIYATI YUZASIDAN NAZORAT

16.1. Jamiatda alohida nazorat qiluvchi organning tuzilishi ko'zda tutilmagan.

16.2. Jamiatning moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazorat ishtirokchilar yoxud mustaqil auditorlik tashkiloti tomonidan amalga oshiriladi.

XVII. XODIMLAR

17.1. Jamiat ma'muriyati xodimlar bilan jamoa shartnomasini imzolaydi. Ushbu shartnomaning mazmuni, shu jumladan «Xodimlarning ijtimoiy ta'minoti va ularni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi nizom» O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari, mazkur ustav, shuningdek jamiyat faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi.

XVIII. JAMIYATNING TIJORAT SIRI

18.1. Jamiatning tijorat siri — uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli tijorat qimmatiga ega bo'lgan, qonuniy asosda erkin foydalanilmaydigan axborot bo'lib, ushbu axborot jamiyat tomonidan uning maxfiyligini muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ko'radi.

18.2. Tijorat sirining muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida xodim:

ish beruvchi tomonidan o'rnatilgan tijorat siri rejimiga rioya etishi;

